



MUHIDDIN OMONNING TARJIMONLIK FAOLIYATI

Ziyouddinova Gulnoza Iqboljon qizi,
Qo'qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil Jurnal soni: 17 Maqola raqami: 51 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1401 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Ushbu maqola XX asrning mashhur adib va olimi Muhiddin Omonning tarjimonlik faoliyatini tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi Muhiddin Omonning tarjimonlikda milliy adabiyot va madaniyatni rivojlantirishga qo'shgan hissasini, shuningdek, tarjima san'atidagi uslubiy yondashuvlarini yoritishdir. Shuningdek, maqolada Muhiddin Omonning "Bizni yod etsalar..." to'plamiga kiritilgan Luis de Kamoens she'rlardan qilingan tarjimalar xususida so'z yuritiladi. Badiiy tarjimada mutarjimning imkoniyatlari, jahon adabiyoti janrlarini o'zbek tiliga o'girishdagi mahorati tahlilga tortiladi. Maqolada tarjimonlik faoliyati bilan bog'liq tarixiy va pedagogik aspektlar, tarjimaning sifatini oshirishga xizmat qilgan adabiy uslublar ham tahlil qilinadi. Shuningdek, Omonning tarjimonlikdagi milliy va badiiy didga urg'u berishi, tarjimada milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik ahamiyati ko'rsatiladi.

Kirish. Hozirgi adabiy jarayonning sermahsul ijodkorlaridan biri Muhiddin Omon ijodida tarjimalar ham alohida o'rin tutadi. Uning shoiriligi tarozining bir pallasida tursa, tarjimonligi ham undan kam yuk bosmaydi. Uning tarjimalarida jahon adabiyotining nodir asarlari yanada jozibador, yanada nafis ko'rinadi. **Shu sababdan ham u tilimizga o'g'irgan asarlar qator adabiyotshunoslar, shoir-u tarjimonlar tomonidan e'tirof etilgan, adabiyot ixlosmandlarining olqishlariga sazovor bo'lgan.** Muhiddin Omon tarjimon sifatida XVI asr portugal shoiri Luis de Kamoens sonetlarini, ingliz yozuvchisi S. Moemning qator esse va hikoyalarni, amerikalik adib R. Bloks asarlarini, Nobel mukofoti laureati K. Gamsunning "Edvarda" (asliyatda "Pan"), gollandiyalik adiba Villi Korsarining "Mangu iztirob" romanlarini, rus shoirlari K. Balmont, B. Pasternak, S. Marshak, A. Barto, L. Kaminskiy, latish shoirlari Oyar Vatsiyetes, Imant Auzin, Peteris Zirnis she'rlarini, ingliz xalq balladalarini, niderland shoirlari Villem Kloss, German Gorter ijodidan namunalarni, Mirza Hasan Qorabog'iyning o'nlab g'azallarini o'zbek tiliga o'g'irgan. Muhiddin Omonning tarjimonlik faoliyati samarasi o'laroq u "Jahon adabiyoti" jurnali tomonidan adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddin xotirasiga bag'ishlab ta'sis etilgan mukofotning 2014-yildagi "Eng yaxshi she'riy tarjimalar uchun" nominatsiyasi g'olibi bo'lgan. Muhiddin Omon Zahiriddin Muhammad Boburga zamondosh bo'lgan portugaliyalik mumtoz shoir Luis de Kamoensning qator asarlarini, xususan, mumtoz shoirning sonet va redondillarini ham o'zbekchalashtirgan. Muhiddin Omon Kamoens ijodi munosabati bilan o'zbek adabiyoti uchun yangi, tuzilishga ko'ra o'ta murakkab redondil janrini olib kirdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Filologiya fanlari doktori, professor No'monjon Rahimjonov Muhiddin Omon tarjimalari haqida gapirar ekan, bu borada jahon adabiyoti mumtoz vakillari ijodidan qilingan tarjimalar u uchun ma'lum tajriba maktabi bo'lganini ta'kidlaydi¹. Muhiddin Omon ijodida jahon mumtoz she'riyatining nodir asarlarini o'z ichiga olgan "Bizni yod etsalar..." to'plami alohida o'rin tutadi. Mazkur to'plamda Portugaliya adabiyotidan Luis de Kamoens, Angliya adabiyotidan Robin Gud haqidagi balladalar, Jon Kits, Dilan Tomas, mumtoz fransuz adabiyotidan Jan Lafonten, Xitoy adabiyotidan Bo Szyuy-I, Niderlandiya she'riyatidan German Gorter, Yan Xendrik Leapold, Villem Kloss, latish adabiyotidan Oyar Vatsietis, Imant Auzinsh, Peteris Zirnis, ozarbayjon adabiyotidan Mirza Hasan Qorabog'iy, arman adabiyotidan Yeghishe Cherents, Avetik Isakyan, rus she'riyatidan Aleksen Apuxin, Konstantin Balmont, Boris Pasternak, Zoya Tumanova singari qator so'z san'atkorlarining asarlari tarjimasi o'rin olgan. Ayniqsa, Luis de Kamoens she'rlari tarjimalari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular o'zbek adabiyotida uchramaydigan Yevropa she'riyati janrlarining tilimizga ilk bor tarjima qilinganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Shoirning o'zi ta'kidlashiga ko'ra bunga o'sha paytda jahon adabiyoti jurnali tahririyatida faoliyat yuritgan, ko'p jihatdan Muhiddin Omonga ustozlik qilgan O'zbekiston xalq shoiri Rauf Parfining maslahati va taklifi sabab bo'lgan. Rauf Parfi Kamoens asarlarini tarjima uchun Muhiddin Omonga topshirar ekan, uning ijodidagi redondil janriga alohida e'tibor qaratishni ta'kidlaydi.

– Bu judayam murakkab, – deydi ustoz. Bu janrga mansub asarlarda dastlab she'ming rejasi xuddi tezis tarzda taqdim etiladi. Keyin o'sha rejaning har bir satri alohida she'rga aylanadi. Ularni qo'shib o'qiganda ham umumiy bir mavzudagi she'r kelib chiqishi kerak.

Tarjimalarni tahririyatga olib kelganda Rauf Parfi qayta-qayta o'qib ko'radi-da, "...men ancha qog'ozning boshiga yetuvdim. Ammo o'z ishimdan qoniqmadim. Sizning tarjimangizda ruhiyat bor... samimiy. Yoshlik baribir boshqacha-da"² – deb shogirdini qutlagandi. Ushbu e'tiroflar bejiz emasligini to'plamdan o'rin olgan qator she'rlar misolida ko'rish mumkin.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tarjimonlik faoliyatini ilmiy tahlil qilish va tarixiy-kontekstual yondashuv tashkil etadi. Maqolada Muhiddin Omonning tarjimalari va ularning badiiy hamda pedagogik jihatlari matnli tahlil usuli orqali o'rganilgan. Bu yondashuv tarjimalardagi uslub, leksika, sintaksis va badiiy ifodaning milliy adabiyotga mosligini aniqlashga imkon beradi.

Kontekstual yondashuv yordamida esa Omonning tarjimonlik faoliyati o'sha davr adabiy-madaniy muhiti, ijtimoiy va pedagogik vaziyat bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Bu yondashuv tarjima ishining nafaqat badiiy, balki milliy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi.

Tadqiqotda shuningdek, tahliliy-deskriptiv metod qo'llanilib, Omonning tarjimonlik merosi va uning adabiy va pedagogik qadriyatlarini tizimli tarzda bayon etilgan. Natijada metodologiya Muhiddin Omonning tarjimonlik faoliyatini kompleks, ilmiy va kontekstual yondashuv bilan o'rganishga imkon yaratadi.

Natijalar. Dastlab redondil janrining spetsifik xususiyatlariga to'xtalib o'tish lozim. Redondil – ispan va portugal she'riyatining artemenor tizimiga mansub bo'lgan janr hisoblanib, odatda 8 hijoli to'rtlikdan tashkil topuvchi stixik modeldir. Uning qofiyalanishi a-b-b-a tarzida bo'ladi, ba'zan a-b-a-b, a-a-b-b ko'rinishida qofiyalangan variantlari ham uchraydi. Janr nomi ispancha-portugalcha "Redondo" ("dumaloq, yakunlangan") tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, band ichida fikrning to'liq aylanishi (circular closure) bilan izohlanadi. Redondil ispan adabiyotida keng qo'llangan bo'lsa-da, Portugaliya adabiyotida ham XV–XVI asrlarda xalqona lirik shakl sifatida keng tarqalgan. Lusitaniya she'riyatida redondillar kantiga, trova, vilansete kabi lirik shakllarning ichki komponenti bo'lib xizmat qilgan.

XVI asr Portugaliya adabiyotida redondil Luis de Kamoens va boshqa qator shoirlar tomonidan klassik ritmika va italyancha petrarkizm unsurlari bilan sintez qilinib, yangi poetik darajada qayta shakllantirildi. Kamoens redondillarni sof xalqona shakldan san'at darajasiga ko'tarib, Uyg'onish davri poetik ideallariga: garmoniya, muvozanat, ritmik ixchamlik tamoyillariga moslashtiradi.

Kamoensning lirik merosidagi redondillarda muhabbat iztiroblari, sadoqat, ma'naviy izlanish kabi mavzularni ifodalash yetakchilik qiladi. Redondillaning ixchamligi shoirga ichki hissiyotlarni qisqa, ammo kuchli, yorqin tasvirlar orqali berish imkonini yaratadi. Kamoens Petrarka an'anasini portugal poeziyasiga moslashtirib, redondillarda sevgi-iztirob antitezasini, shoir qalbidagi ruhiy ziddiyatlarni qisqa to'rtliklar ichida nozik tarzda joylashtiradi. Xususan, uning "Safolardan

¹ Muhiddin Omon. Bizni yod etsalar. – Toshkent: Sahhof, 2018. – 8-b.

² Muhiddin Omon. Bizni yod etsalar. – Toshkent: Sahhof, 2018. – 6-b.

yodgor qoldi faqat xotiro” redondili mazkur janring yorqin namunasi hisoblanib, uni Muhiddin Omon mahorat bilan tarjima qilgan.

She’rda tushkun kayfiyat iskanjasida qolgan lirik qahramonning ruhiy holati tasvirlanadi:

Evoh, umid shamlarimning ziyosi so’ndi,
Havaslarim yolg’onligin anglatdi hayot.
Mahzun dilga qayg’ulardan dalolat indi,
Safolardan yodgor qoldi faqat xotiro...³

She’rda Kamoens ruhiy iztiroblar, hayot mohiyati, umidning o’chishi va xotiralar og’ushida qolish kabi falsafiy motivlarini aks ettiradi. She’ming mazmun yadrosini insonning umid tomon intilishi va hayotiy voqealar tufayli bu nurning tobora so’nib borayotganligi haqidagi poetik mushohada tashkil etadi.

She’r tarjimasida keltirilgan “umid shamlarimning ziyosi so’ndi”, “havaslarim yolg’onligin anglatdi hayot”, “mahzun dilga qayg’ulardan dalolat indi” kabi satrlar Kamoensga xos bo’lgan ekzistensial kayfiyatning o’zbek tilida nihoyatda tabiiy ifodalanishiga misoldir. Misralarda metafora asosiy badiiy vosita sifatida qo’llanadi. Muhiddin Omon mazkur satrlarda metaforik strukturalarni saqlab qolish bilangina cheklanmay, ularni o’zbek poetik tafakkuriga mos holda tasvirlashga harakat qiladi, metaforaning semantik ko’lamini kengaytirish orqali ta’sirchanlikni o’rttirishga erishadi. “Safolardan yodgor qoldi faqat xotiro...” misrasida esa “safolar – xotiro” oppozitsiyasini nihoyatda nozik lirizm bilan berish orqali, Kamoens lirikasidagi “o’tgan lazzatlar – qolgan alam” dialektikasiga mos mazmunni topa oladi. She’rda bo’y ko’rsatgan iztirob “mahzun dil”, “qayg’udan dalolat”, “yolg’onligin anglatdi hayot” kabi birikmalar orqali o’quvchiga yetkaziladi. She’rdagi hissiy og’irlikni ortiqcha balandparvozliksiz, tabiiy lirizm bilan ifodalashi tarjimaning silliq va tushunarli bo’lishini ta’minlaydi.

Muhokama. Redondil tarjimasida shoiming so’z boyligi nihoyatda keng ekanligi, tarjima qilinayotgan tildagi so’zlarni o’zbek kitobxonining qalbiga yetkaza oladigan ekvivalentlarini topa olish mahorati yaqqol namoyon bo’ladi. Bu xususiyat poetic tarjimalarda muhim ahamiyatga ega bo’lib, u nafaqat tarjimaning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi, balki tarjima qilinayotgan asarning kitobxon uchun yanada qiziqarli bo’lishini ham ta’minlaydi. Uning Chorladilar, chalg’itdilar sarob orzular, Intilganni jalb ayladi ohangrabosi. Dil mehvarin tashlab ketdi inja tuyg’ular, Evoh, umid shamlarimning so’ndi ziyosi...⁴ misralaridagi “qalbni”, “yoqimli, nozik” so’zlarining o’rniga she’rdagi badiiylilikni yanada oshiruvchi, ta’sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi “mehvar”, “inja” so’zlarini qo’llashi chin ma’noda tarjimonning mahorat qirralaridandir.

M.Omon mazkur redondilni tarjima qilar ekan, janring nazariy qonuniyatlariga to’la amal qiladi. She’rning dastlabki to’rt misrasi undan so’ng kelgan to’rt bandning barchasida takrorlanadi. Takrorlanish ham shunchaki bo’lmay, bandlarning mazmuniga to’la mos keladi va she’rning umumiy mazmun dinamikasi tizimli rivojlantiriladi. Birinchi banddagi

Intilganni jalb ayladi ohangrabosi

Evoh, umid shamlarimning so’ndi ziyosi...

misralari lirik qahramonning dastlabki ruhiy holatini ifodalab, mavjud qalb og’riqlarining sabablarini izohlashga xizmat qilgan bo’lsa, ikkinchi band so’ngidagi:

Adabiyotlar ro’yxati

1. Muhiddin Omon. Bahorlar qaytadi. -Toshkent: Sakhof, 2023. -256 b.
2. Muhiddin Omon. Bizni yod etsalar. -Toshkent: Sakhof, 2018. -198 b.
3. Adabiy turlar va janrlar. Uch tomlik, II tom. Lirik. -Toshkent: Fan, 1992. -B.63.

...Bor bisotim muhabbatga nisor etdim shod...
Zero, ishqqa badal bergan bo’lmas kambag’al,
Xavaslarim yolg’onligin anglatdi hayot...⁵

misralari lirik qahramonning muhabbatni ulug’lashi, ishqning o’tgan lazzatlari bilan birga hijronlarini ham qadrlashi yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Misralarda istifoda etilgan “nisor etmoq”, “bisot”, “badal bermoq” so’zlari bandga sharqona ruh bag’ishlab, uning yuksak badiiyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

She’ming uchinchi bandidagi:

Biroq g’amza shamshirlari birma-bir sindi.

Chunki ko’nglim barbod etgan ishq emas yolg’on,

Mahzun dilga qayg’ulardan dalolat indi...⁶

satrlarida lirik qahramon chin deya ishongan tuyg’ularning aslida sarob ekanligiga iqrar bo’ladi. U yolg’on muhabbatning achchiq azoblarini totsa-da, ishq atalmish pok tuyg’uni malomat qilmaydi. Aksincha, ishq bilan adashtirilgan yolg’onning o’zining oshiq qalbini parcha-parcha qilib, “g’amza shamshirlari birma-bir singan”idan shikoyat qiladi. Bu o’rinda shoir chin oshiqqa xos bo’lgan xususiyatlarni o’ziga jo etgan umumiy ruhni redondil misralariga singdira oladi ya’ni oshiq uchun faqat yorning visoli emas, sog’inchi hijronlari ham, iztirob-u sitamlari-yu, azob va uqubatlari ham qadrli ekanligini aytadi. Uchinchi banddagi mazkur iqrorlik kayfiyati o’quvchini to’rtinchi banddagi yakuniy xulosalar tomon boshlaydi. Endi lirik qahramon g’orat bo’lgan ko’ngilning holini qabul qilishni boshlaydi, unga ko’nikadi. Uzoq vaqt davomida bardosh berib kelgan jafolarning evaziga faqatgina bir narsa talab qiladi:

Yillar bo’yi chidab keldim, berib keldim dosh,

Tengsiz azob, jabru jafu yekin ko’tardim.

O, muhabbat, baxsh etsayding ozgina bardosh,

So’nggi sinov marrasidan omon o’tardim.

Mayli, yorning sitamlari yetkazsin ozor,

Mayli, yakkash anduh ichra kechsin bu hayot,

Orzu guli mayli, so’lsin, bo’lsin xor-u zor,

Safolardan yodgor qolsin faqat xotiro...⁷

Lirik qahramon yor yetkazgan sitamlar-u ozorlarga parvo qilmaydi, hayotining qolgan qismining dardlar ichida o’tishiga rozi bo’ladi, ishq yo’lida qilingan umidlarning so’nishiga ham tayyor. Faqatgina oshiqlik paytidagi hadsiz safolar unga yo’ldosh bo’lib qolsa kifoya. Bu o’rinda yolg’onga uchragan oshiqning ishqqa bog’langan hassos qalbi bor bo’y-basti bilan namoyon bo’ladi va o’quvchi ko’z o’ngida “haqiqiy oshiq” portreti yuksak mahorat bilan chiziladi.

Xulosa. Ko’rinadiki, yuqoridagi redondilning o’zbek kitobxonini “hazm qila oladigan” darajada ta’sirli tarjima qilinishida mutarjimning mahorati tahsinga sazovor. Jahon adabiyotidan boxabarlik, shu bilan birgalikda, o’zbek mumtoz adabiyoti chashmalaridan bahravorlik Muhiddin Omonga o’zbek adabiyoti uchun tom ma’noda yangilik bo’lgan redondilni san’at asari darajasida tarjima qilishga imkon beradi. Uning talqinida Luis de Kamoens ifodalamoqchi bo’lgan sokin iztirob o’zbek kitobxoniga tarjimon baxsh etgan yangi quvvat bilan ta’sir ko’rsatadi. Adabiyotning turli yo’nalishlari, janrlari, poetik shakllarida tajribalar olib borib, har tamonlama ijodiy rivojlanishiga imkon yaratadi.

4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi.-Toshkent: Akademnashr, 2019. B.277.

5. www.facebook.com

6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/-poetry.html>

³ Muhiddin Omon. Bizni yod etsalar. -Toshkent: Sakhof, 2018. - 16 b.

⁴ Muhiddin Omon. Bizni yod etsalar. -Toshkent: Sakhof, 2018. -17 b.

⁵ Muhiddin Omon. Bizni yod etsalar. -Toshkent: Sakhof, 2018. -17 b.

⁶ Muhiddin Omon. Bizni yod etsalar. -Toshkent: Sakhof, 2018. -18 b.

⁷ Muhiddin Omon. Bizni yod etsalar. -Toshkent: Sakhof, 2018. -19 b.